



PEDAGOGIK FAOLIYATDA STEAM YÒNALISHI

To'raqulov Akbar Rustam o'g'li

DTPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Norqulova Marjona Asror qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika iinstitut Boshlang'ich ta'lim yònalish
talabasi

Tel:+998991638868

Yoshlikda olingan bilim toshga òyilgan naqsh kabidir.

Annotatsiya: Steam ta'limini joriy etishda me'yoriy huquq asoslari. Steam ta'limi-bu axborotlashgan zamon talabi. Integratsiyalashgan ta'limni joriy etishdan kòzlangan maqsad - bu ta'lim, jamiyat, ish va dunyoni bir butun holda tasavvur etish va ular òrtasida bar qaror aloqa òrnatish. Steam ta'lim tizimini joriy qilishdagi me'yoriy huquqiy asoslari.

Kalit so'z: steam, baholash, raqamli texnologiya, ta'lim tizimi, ilmiy texnikaviy konsepsiya, ilm-fan

Hozirgi kunda òsib kelayotgan yosh avlodni raqamli texnologiya olamining yutuqlaridan foydalanishni xohlaydi. Konstruktivistik modellashtirish, robotexnika hamda dasturlash sohasiga qiziquvchi yoshlarimiz safi kun sayin ortib bormoqda. Yoshlarni ushbu sohalarga tayyorlash uchun steam ta'limi-bu axborotlashgan zamon talabi. Ushbu strategiya tabiiy, aniq, muhandislik va matematika fanlari òzaro integratsiyasi bòyicha innovation òqitish uslublarini yaratishga qaratilgan. Stem va steam ta'lim tizimi yondashuvli ta'lim hisoblanadi. Hozirda ta'lim tizimi rivojlangan Finlandiya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, AQSh va Rossiya davlatlari ta'lim jarayonlarida qòllanilib kelmoqda. Bu dastur AQSh ta'lim tizimida qòllanilmoqda. Steam ta'lim tizimi-real hayot talablaridan kelib chiqqan holda Akademik ilmiy-texnikaviy konsepsiya doirasida integratsiyalashgan holda òqitishdir. Bugungi kunda ilm-fan texnikaning Jada taraqqiy etishi, raqamli iqtisodiyotning amaliyotga joriy etilishi, òquvchilarda òqishga so'g'lom, kuchili va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirishda, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirishda nazariy bilimlarni amaliyotda qòllash kònikmalarini hosil qilish asosiy vazifalardan biridir.

Yurtimizda steam ta'lim tizimini joriy qilishdagi me'yoriy huquqiy asoslari mavjud. Bularga Òzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Òzbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish



konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoniga kora,innovation ta'lim jarayoniga o'tish,zamonaviy kadrlarga bolgan ehtiyojini inobatga olish,AKT va ta'lim berishning yangi metodlarini joriy etish,steam fanlarini o'qitish boyicha o'quv kurslaridan o'tgan pedagoglar 2023-yilda 10foiz 2030-yilga kelib 50 foizga yetishi,yangi kasbiy kompetensiyalarni ozlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish kabi vazifalar belgilangan.Steam yondashuvida egallangan bilimlarni haqiqiy konikmalar bilan birlashtirish lozim.Shunday ekan ishlatilishi mumkin bolgan bilimgina haqiqatan qadrlidir.

Maktablarda tabiiy fanlarni o'qitishda steam yondashuvining afzalliklari:

1. Sinfidagi o'quvchilarni maksimal darajada qamrab olish.
2. Hamkorlikda ishlash,har bir o'quvchining Kuchipudi tomonini aniqlash.
3. Motivatsiyaga,ta'lim olishga qiziqtirish.

Hozirgi kunga kelib Jahon ta'lim tizimini to'liq organib chiqqan holda, O'zbekistonda ham yangi darsliklar ishlab chiqilmoqda.Bu darsliklar 4K model asosida yaratilmoqda.Darsliklarda mavzular spralsimon tarzda tashkil qilingan ya'ni oldingi mavzular bilan bog'langan holda keyingi mavzular takrorlangan. Steam ta'lim tizimidagi darsliklar asosan o'quvchilarni yodlashga emas,fikrlashga undaydi.

Baholash - ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida olchash,natijalarni aniqlash va tahlil etishdan iborat jarayondir.

Choral davomida joriy va oraliq nazoratlarda olingan ballar asosida choraklik baholar va bosqichli nazoratda olingan ball asosida yillik baho aniqlanadi.Baholash bugungi ta'lim tizimining asosiy va ajralmas qismidir.

Baholashning 3 xil ko'rinishi mavjud.

1. Diagnostik (boshlang'ich)
2. Formativ (shakllantiruvchi joriy)
3. Summativ (xulosalovchi,yakuniy)

Formativ baholash -ta'lim jarayoni davomida ta'lim oluvchilarning ozlashtirish sifatini baholab borish. Formativ baholash muntazam ravishda otkazilib boriladi.U ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni tezkor aniqlab borish,o'quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi ortasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi. Formativ baholash summativ baholashdan farqli ravishda bevosita o'qituvchi tomonidan,asosan,norasmiy shakllarda otkaziladi.



Summativ baholash ta'lim oluvchining ta'lim jarayonining ma'lum davridagi o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. Summativ baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichi yakunida o'tkaziladi. Summativ baholash yozma, test suhbat, amaliy topshiriq o'g'zaki shakllarda bo'lishi mumkin. Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib 2xil shaklda o'tkazilishi mumkin.

Mezonga asoslangan baholash

Meyorga asoslangan baholash

Summativ baholash jarayonida olinadigan nazorat bosqichlari.

Oraliq nazoratlar

Yakuniy nazoratlar

Yakuniy davlat attestatsiyalari

Ta'lim sifati monitoringgi xalqaro baholash tadqiqotlari.

Shuni aytish mumkinki har qanday zamonlarda ham ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor berilgan. O'zbekistonda ham yangi ta'lim tizimini joriy qilishda o'zgartirishlar kiritilmoqda. Davlat Ta'lim Standartlari o'rniga yanada takomillashtirilgan Milliy O'quv Dasturi ishlab chiqildi. Bu dasturi 6ta komponentni o'z ichiga oladi. Bu 6ta komponentning 3tasi DTSda bo'lgan va 3tasi yangi hisoblanadi. Jahon darsliklarini o'rganib, tahlil qilgan holda yangi darsliklar ishlab chiqilmoqda. Oldingi darslik mavzulari to'g'ri chiziqqa asoslangan tarzda yaratilgan bo'lsa, hozirgi darslik mavzulari spralsimon tarzda tuzilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. K. Jalilov "Baholash nazariyasi asoslari"
2. D. Ròziyeva, M. Usmonboyeva, Z. Xoliqova "Interfaol metodlar: mohiyati va qòllanishi (metodik qòllanma)". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.
3. Akbar, T. (2022). Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(8), 160-167.
4. Rustamovich, T. R. A. (2021). Islom Ta'limotlarda Shaxs Ma'naviyati Masalalari. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 186-190.